

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil yanvar-mart)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oyida viloyatda 2,9 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 mingtagayoki 107,5 foizga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4326 ta (15,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 32,5 mingtani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar
38,2 ming**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar
32,5 ming**

**Yangi tashkil etilganlar
2,9 ming**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes
sub'ektlari soni 26,9 mingta bo'lib,
yanvar-mart oylari davomida 2,9
mingta yangi tashkil etildi.**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi
0,9 mingta korxonalar faoliyat
ko'rsatmoqda.**



**O'tgan yilga nisbatan tugatilgan korxona va tashkilotlar
soni 52 taga yoki 19,4 foizga kamaygan**

Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4163	3519	216
	Sanoat	7433	6328	621
	Qurilish	2934	2444	269
	Savdo	9200	7581	1187
	Tashish va saqlash	1309	1115	99
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3053	2440	260
	Axborot va aloqa	527	378	16
	Sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	605	562	23
	Boshqa turlari	9003	8167	251



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1 aprel holatiga 38,2 mingta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,9 % savdo, 19,3 % sanoat, 10,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 8,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,6 % qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,6 % sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 23,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarsoni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarsoni eng ko'pi Zangiota (3965 ta), Qibray (3823 ta), Toshkent (2777 ta) tumanlari va Angren shahri (2581 ta) hissasiga to'gri keladi. Ohangaron (878 ta), Oqxo'rg'on (950 ta), Piskent (984 ta) tumanlari hamda Ohangaron (907 ta) va Nurafshon (955 ta) shaharlarda korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, mingda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.04.2017 yil 01.04.2018 yil 01.04.2019 yil
29,6 32,0 38,2



Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 32,5 mingtani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4,3 mingta (15,3 %) ga oshgan.


**01.04.2018 y.
28,2 ming**

**01.04.2019 y.
32,5 ming**

**O'tgan yilga nisbatan
4,3 mingtaga oshgan**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,3 % savdo, 19,5 % sanoat, 10,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yichaxizmatlar, 7,5 % qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, % (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni tashkilotlarsoni eng ko'pi Zangiota (3450 ta), Qibray (3110 ta) va Toshkent (2310ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ohangaron (762ta), Oqxo'rg'on (815ta), Chinoz (896 ta) tumanlari hamda Ohangaron (800 ta) va Nurafshon (845 ta) shaharlarda korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni yillar
kesimida,birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.04.2017 y.

- 26,5 ming

01.04.2018 y.

- 28,2 ming

01.04.2019 y.

- 32,5 ming




Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oyida 2942 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Zangiota tumani (383 ta), Qibray (251 ta) va Toshkent (236 ta) tumanlari hamda Angren (216 ta) shahar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (46 ta), Piskent (69 ta), Quyichirchiq (70 ta), Oqqo'rg'on (81 ta) va Chinoz (92 ta) tumanlari hamda Ohangaron (53 ta), Nurafshon (81 ta), Yangiyo'l (83 ta) shaharlarda korxona va tashkilotlarnitashkil etish ko'satkichi past darajaligikuzatilmogda.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1187 ta), sanoat (621 ta), qurilish (269 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (260 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (16 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (23 ta) hamda tashish va saqlash (99 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1318	100	1418	100	2942	100
Savdo	237	18,0	262	18,5	1187	40,3
Sanoat	335	25,4	336	23,7	621	21,1
Qurilish	94	7,1	177	12,5	269	9,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	131	9,9	114	8,0	260	8,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	289	21,9	216	15,2	216	7,3
Tashish va saqlash	61	4,6	56	3,9	99	3,4
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	1,4	24	1,7	23	0,8
Axborot va aloqa	25	1,9	34	2,4	16	0,5
Boshqa turlari	128	9,7	199	14,0	251	8,5

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillarkesimida soni, mingta
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.04.2017 y.

1,3

01.04.2018 y.

1,4

01.04.2019 y.

2,9




TIJORAT KORXONALARI.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1 aprel holatiga 27,1 mingta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,8 mingta, oilaviy korxonalar – 1,8 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19,0 mingta va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda


(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 913 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 282 taga yoki 44,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 502 tasi qo'shma korxonalar, 411 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Zangiota tumani (120 ta yoki jamidagi ulushi 13,1%), Qibray tumani (89 ta yoki 9,7%), Yuqorichirchiq tumani (76 ta yoki 8,3 %) va Angren (70 ta yoki 7,7 %), Chirchiq shaharlari (65 ta yoki 7,1%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bekobod hamda Bo'ka (6 tadan yoki 0,7 %), Oqqo'rg'on (10 ta yoki 1,1 %), Piskent (12 ta yoki 1,3 %), Chinoz (14 ta yoki 1,5 %) tumanlari va Bekobod shahar (12 ta yoki 1,3 %) hissalariga tog'ri keladi.


Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lган ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 558 tani (61,1 %), savdoda 139 tani (15,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 80 tani (8,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 65 tani (7,1 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 11 tani (1,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 15 tani (1,7 %), tashish va saqlashda 19 tani (2,2 %) va qurilishda 21 tani (2,4 %) tashkil

qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri keladi.

Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarsoni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 84 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 27 ta, Turkiya Respublikasi -12 ta, Rossiya Federatsiyasi - 11 ta, Janubiy Koreya Respublikasi – 9 ta va Qozog`iston Respublikalari - 6 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yilda Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Amerika Qo'shma Shtatlari, Chexiya Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Isroil Davlati, Qirg`iziston Respublikasi,

Ruminiya, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublika rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (47 ta), savdo (17 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (5 ta), qurilish (4 ta), tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalarida (1 tadan) hamda boshqa faoliyat turlari (8 ta) hissasiga to'gri keladi.



**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-martoyi		2019-yil yanvar-martoyi	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	41	100	84	100
Sanoat	27	65,9	47	56,0
Savdo	4	9,8	17	20,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5	12,2	5	6,0
Qurilish	1	2,4	4	4,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	1,2
Tashish va saqlash	1	2,4	1	1,2
Sog'liqniisaqlashvaijtimoiyxizmatlarko'rsatish	2	4,9	1	1,2
Axborot va aloqa	x	x	x	x
Boshqa turlari	1	2,4	8	9,5



**Kichik korxona va mikrofirmalar soni.
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2019-yil 1 aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 26,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1 aprel holatiga qaraganda 18,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 3,0 mingtasi (11,1 %) Zangiota, 2,6 mingtasi (9,7 %) Qibray hamda 2,0 mingtasi (7,6 %) Toshkent tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng katta ulushi

Zangiota tumani
11,1 %

Qibray tumani
9,7 %

Toshkent tumani
7,6 %

Chirchiq shahri
5,9 %

Angren shahri
5,7 %

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng kichik ulushi

Ohangaron shahri
2,6 %

Chinoz tumani
2,5 %

Nurafshon shahri
2,5 %

Oqqo'rg'on tumani
2,3 %


Ohangaron tumani
2,2 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26,9 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 7,5 mingtasi (28,0 %)–savdo, 6,2 mingtasi (23,2 %)–sanoat, 3,5 mingtasi (12,9 %)–qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 mingtasi (9,1 %) – qurilish, 2,4 mingtasi (9,0 %)–yashashva ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1,1 mingtasi (4,1 %) – tashish va saqlash, 0,4 mingtasi (1,6 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 mingtasi (1,4 %) – axborotva aloqa sohasi, shuningdek 2,9 mingtasi (10,7 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019-yil yanvar-mart oylarida 2,9 mingdan ziyod kichik korxonava mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1549 taga yoki 118,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichikkorxona va mikrofirmalar Zangiota (374 ta), Qibray (249 ta), Toshkent (235 ta) tumanlariva Angren (211 ta) shahar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ohangaron (45 ta), Piskent (62 ta), Quyichirchiq (68 ta) tumanlari va Ohangaron (48 ta), Nurafshon (72 ta) shaharlarida tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1186 ta), sanoatda (621 ta), qurilishda (269 ta) va yashashva ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (259 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta) hamda tashish va saqlashda (99 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1 aprel holatiga 2125 tani tashkil etib, ulardan 1838 tasi yoki 86,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 16,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 38,7 % yoki 712 tasi sanoat, 20,1 % yoki 370 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,7 % yoki 363 tasi savdo, 12,9 % yoki 237 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 20 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 15 tasi qurilish, 0,7 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 106 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
yillarkesimida, birlikda**

01.04.2017 yil
1156

01.04.2018 yil
1411


01.04.2019 yil
2123



Qishloq xo'jaligi korxonalarini

2019 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini soni 22,2 mingtani tashkil etdi. Mulkchilik shakli bo'yicha tahlil qilinganda xususiy korxonalar-362 ta, oilaviy korxonalar-237 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar-2812 ta, dehqon va fermer xo'jaliklari-18633 ta va boshqa mulkchilik shakliga ega bo'lган korxonalar 108 tani tashkil qilgan.

Faoliyat ko`rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini mulkchilik shakli bo'yicha ulishi, foizda



**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Tel.:71-230-86-83 (84)